

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Sh. I. Rustamova

Toshkent soliq texnikumi ishlab chiqarish ta’limi ustasi

X. M. Ibroximov

O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Mahalliy budjetlar daromadlari va davlat budjetining viloyat, tuman va shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari hamda miqdori nazarda tutiladigan budjet kodeksidir. Mahalliy budjetlar daromadlari va davlat budjet harajatlari mamlakatda yaratilgan milliy daromadning taqsimlanishi asosida hududlarda istiqomat etuvchi aholiga va uning natijalarini yetkazib beruvchi mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltiriladi.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjet, daromad, iqtisodiyot, moliya, kodeks, xarajat.

KIRISH

Mahalliy budjetni mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida olib qaralganda uning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatish lozim bo‘ladi:

- mahalliy budjet milliy daromadni qayta taqsimlashning maxsus iqtisodiy shakli sifatida;
- mahalliy budjet orqali mamlakatda yaratilgan milliy daromad milliy iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida qayta taqsimlanishini amalga oshiriladi;
- mahalliy budjet yordamida mamlakatning har bir hududining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy talablariga asosan milliy daromadning qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlarning mohiyati uning maqsadligidir. Ushbu omil esa mahalliy budjetlar bajaradigan funksiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy budjet mamlakatning har bir hududini iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirishga bevosita ta'sir etuvchi eng muhim dastak hisoblanadi. Budjet kodeksining 52-moddasida mahalliy budjetlarning daromadlarini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar yoritilgan bo'lib, bunda respublika budjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlarining daromadlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "Ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan budjetga tushadigan mablag' albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma'muriyatchiligi orqali bartaraf etish va budjet barqarorligini ta'minlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamizdir"¹.

Jahon tajribasidagi mavjud turli darajadagi budjetlar markazlashgan va nomarkazlashgan turlarining amaliyotida har xil modellari qo'llanadi. Buning negizida esa davlatlar tuzilishi ahamiyatga ega: avvalambor markazlashgan yoki federativ mamlakatligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Lekin markazlashgan mamlakatlarda ham davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining normarkazlashganlik darajasi turlicha. Bu borada, Wallis J., Oates W. larning kuzatishlarini misol qilib keltirsa bo'ladi:

Davlat hududi qanchalik katta bo'lsa, uning «nomarkazlashganlik darajasi» shunchalik kengroq bo'lishi; mamlakat aholisining soni qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik uning «nomarkazlashganlik darajasi» kengroq bo'lishi; aholi joylashishining zichlik darajasi, ya'ni shaharlarda yashovchi aholining ulushi qanchalik ko'p bo'lsa, uning «nomarkazlashganlik darajasi» shunchalik kengroq bo'lishi; Aholi turmush darajasi qanchalik yuksak bo'lsa, uning «markazlashganlik darajasi» shunchalik kengroq bo'lishi, ya'ni davlat budjet daromadlarini qayta taqsimlash bilan bog'liq vazifalari ko'proq bo'lishi; jamiyat (davlat aholiga)

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.



xizmatlarining turlari ko'pligi, hududlardagi xilma-xilligi budjetning nomarkazlashganlik darajasi yuqori bo'lishini ta'kidlaydi.

Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyunda qabul qilingan PF-5075-sonli farmonida "Aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash, markaz budjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, budjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy budjetlar mablag'larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat budjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilanganligi alohida e'tiborga molik².

Mahalliy budjetlarning mustaqilligini oshirishdagi eng muhim omil ularning o'z daromadlar bazasiga ega bo'lishlaridir. Taraqqiy etgan davlatlarda bu muammoni hal qilish uchun odatda sotuv solig'i qo'llaniladi va bu soliqlardan tushumlar ko'pincha mahalliy budjetlarga yo'naltiriladi.

Bunday soliqlarning nomlanishi, qo'shimcha qiymat solig'i deb atalgani bilan aslida Hamdo'stlik davlatlarida qo'llaniladigan qo'shimcha qiymat solig'idan keskin farqlanadi.

Hamdo'stlik davlatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan qo'shimcha qiymat solig'i oraliq iste'molda qo'llaniladi. Bunday soliq tarafdorlari qo'shimcha qiymat solig'ini oxir-oqibatda yakuniy ist'emolchilar to'lashini ta'kidlaydilar. Lekin oraliq iste'molga qo'llanilayotgan soliq har qanaqasiga mahsulotning keskin tannarxi o'sishiga olib keladi. Mahsulotlar raqobatbardoshligini yo'qotadi. Natijada ularning o'rnini chet eldan import qilingan mahsulotlar egallaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni esa bunday soliq amaliyoti kasod bo'lishlariga boshlaydi.

Taraqqiy etgan davlatlar, yuqorida qayd etilganidek, soliqlarni yakuniy tayyor mahsulotga qo'llaydilar. Ularning miqdori: Yaponiyada 3%ni, Shveysariyada 6,5%ni, Kanadada 7,5%ni, Amerika Qo'shma Shtatlarining turli shtatlarida turlicha stavkalarni, masalan, Oxayo shtatida 5%ni, Nyu-York shtatida 7%ni tashkil etadi³.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli farmoni.

³ Wallis J., Oates W. Davlat sektorida markazsizlashtirish: Davlat va mahalliy boshqaruvni empirik o'rganish // Fiskal federalizm: Miqdoriy tadqiqotlar / Ed. H. Rosen tomonidan. Chikago: Chikago universiteti matbuoti, 2018. S. 13-15



XULOSA VA MUNOZARA

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va xarajatlar samaradorligi yuzasidan kuyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin:

- Viloyatlarda bo'yicha boqimanda qarzidorliklarni qisqartirish va soliq to'lovlarini rag'batlantiruvchilik funksiyasini oshirish;
 - Iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlaydigan to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalarini jalb qilish orqali faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash natijasida, mahsulot hajmini hamda sifatini oshirish bilan birgalikda mahalliy budjet xarajatlarini optimallashtirish maqsadida, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;
 - Viloyatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida, yangi kichik korxonalar tashkil etish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish orqali, aholining ish bilan bandligini ta'minlash darkor;
 - Viloyatlarda to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalarda moliyaviy sog'lomlashtirish va ularda eksportga yo'naltirilgan sifatli hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish lozim.
 - Respublika miqyosida o'zaro debitorlik-kreditorlik qarzidorligini inventarizatsiya qilish va yuzaga kelgan asossiz qarzidorliklarni amaldagi qonunchilikka asosan o'zaro so'ndirish;
 - Hududlarda o'z tarkibiga mahalliy budjet, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mablag'lari, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansini birlashtirgan yig'ma moliyaviy balansni tuzish lozim.
- Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun tuman va shahar hokimlari huzuridagi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi mutassadi idoralar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlari muvofiqlashtiruvchi kengashini tuzish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent, 2020 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. Toshkent, 2017 y.
4. Wallis J., Oates W. Davlat sektorida markazsizlashtirish: Davlat va mahalliy boshqaruvni empirik o'rganish // Fiskal federalizm: Miqdoriy tadqiqotlar / Ed. H.



Rosen tomonidan. Chikago: Chikago universiteti matbuoti, 2018. S. 13-15.

5. Bahl R. Rivojlanayotgan mamlakatlarda shahar davlat moliyasi / R. Bahl, J. Linn. Vashington Jahon banki.2012
6. Kirill D. N. Nazariy va amaliyotda mahalliy boshqaruv iqtisodiyoti. L.: Routledge, 2012 yil.

